



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “19” aprel

BUYRUQ № 61

Toshkent sh.

**Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va yillik
o‘rtacha ishchilari soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yangilash
REGLAMENTIni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va yillik o‘rtacha ishchilari soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yangilash zamonaviy usullarini joriy etish mexanizmini takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va yillik o‘rtacha ishchilari soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yangilash REGLAMENTI” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019- yil 8- oktabrdagi “Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va yillik o‘rtacha ishchilari soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yangilash REGLAMENTIni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 104-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiritilsin.

Direktor

B. Begalov